

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH (A.T XALQ BANK MISOLIDA)

Nazirov Suxrob Ilyos o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kredit operatsiyalari hisobini yuritish, kredit tizimining rivojlanish tarixi, kredit turlari, kredit mablag‘lari xarakatining buxgalteriyadagi hisobini takomillashtirish hamda kreditlashtirish tizimini yanada rivojlantirish masalalari tadqiq yetilgan. Banklarimizning kredit resurslari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida tahlil qilinib, amaliy natijalar bilan boyitilgan.

Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo‘ymoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo‘yicha to‘lash va ehtimoliy yo‘qotishlar zahiralarini jarayolari hisobini takomillashtirish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Tijorat banki, debit, kredit, kredit hisobvarag‘i, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, kapital, zaxira fondi, hisobvaraq, kredit operatsiyalari, shartnomma, balans, garov shartnomasi, neustoyka, o‘zgaruvchan yoki o‘zgarmas foiz stavkasi, ssuda, foiz stavkalari, annuitet, differensial, avanslangan foiz

Kirish

Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo‘jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko‘payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni undirib olishni ta’minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy nazorat qilib borish asosiy ish deb talab qilinmoqda.

Tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o‘z hizmat turlarini ko‘paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o‘z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va halqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo‘yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan shuningdek, tijorat banklari nafaqat sub’ektlarni kreditlash balki, ushbu resurslardan kutiladigan natijani buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilishni taqozo etadi. Shuningdek, kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqarostandartlar talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo‘ymoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat

banklarida kreditlar bo‘yicha to‘lash va ehtimoliy yo‘qotishlar zahiralarini jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi

Mavzuning dolzarbligi

Tadqiqotning maqsadi – mamlakatimiz banklarida kredit operatsiyalari hisobini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek kredit bozorining salohiyatini oshirish bo‘yicha muammolarni o‘rganish hamda shu asosda yechimlarini aniqlash, kredit muomalalarini hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan isloxitlar bo‘yicha tahliliy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- bankning kredit faoliyati asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha rejaning bajarilishini nazorat qilish;

- bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirishni o‘z vaqtida va to‘g‘ri belgilash;

- bank kreditlarini tan olish va ularni hisobda aks ettirish to‘g‘riligini ta‘minlash;

- bank kreditlari hisobini to‘g‘ri yuritish va moliyaviy hisobotlar tayyorlash uchun ma’lumot bilan ta‘minlash;

- zamonaviy takomillashgan hisob tizimini tadbiq qilish, bank kreditlari ko‘rsatkichlari uslubiyoti va moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish;

2021-2025-yillarga mo‘ljallangan bank faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi bo‘yicha, shu jumladan:

- bank nazorati bo‘yicha “Bazel” qo‘mitasining talablariga asosan, tijorat banklarining mablag‘lari yetarliligi va likvidligi darajasi ko‘rsatkichini qo‘llab-quvvatlash;

- boshqaruv va bank tavakkalchiligi tizimi, shu jumladan, ilg‘or xorijiy amaliyotlari asosida tijorat banklarida menejment tavakkalchiligi samaradorligini yanada oshirish;

- tijorat banklari faoliyatiga, shu jumladan, kredit siyosatiga davlat hokimiyati organlari tomonidan ma’muriy aralashuvlarning oldini olish va yo‘l qo‘ymaslik;

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirga qadar tijorat banklarida kredit operatsiyalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligi hamda hisobini takomillashtirish bo‘yicha xorijlik va maxalliy iqtisodchi olimlar bir qancha tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, bu olimlar kredit va kreditlashtirish jarayonlarining umumiy tahlili, makroinvestitsion faoliyat, ya’ni investitsion loyihalarni investitsion kreditlash, moliyalashtirish masalalariga e’tibor bergenlar. Xorijlik iqtisodchilardan Avagyan G.L., Van Xorn D.K., A.Blank, V.Bocharev, G.Arnol’d, J.Keyns, J.Al’tman, O.Lavrushin, X.U.Soto,

R.SHeninlarning ilmiy ishlarida kredit mablag'lari xarakati bilan bog'liq jarayonlar o'rganilgan¹.

Muammoli kreditlar sohasidagi tadqiqotchi A.V. Slavyanskiyning fikriga ko'ra, "muammoli kredit" - bu qarz oluvchi qarzni o'z vaqtida va to'liq qaytarish bo'yicha kredit shartnomasi shartlarini bajarmagan, shuningdek, bank ham shartnomasi shartlarini qarzdor tomonidan bajarilmasligiga yetarli asoslarga ega bo'lgan kreditdir².

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, A.Omonov, O.K.Iminov, D.G'ozibekov, U.A.Tuxtaboyev, Sh.Ro'zmetov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida tijorat banklari investitsion faoliyatining ayrim nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan³. Ular o'z asarlarida mamlakatdagi kreditlashtirish muammolarini ko'rib chiqqanlar, ammo hozirgi davrda tijorat banklarida investitsion loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini takomillashtirish bo'yicha bir qancha muammolar mavjudki, ular moliyaviy va iqtisodiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni o'rganish davomida ko'plab olimlarning fikrlari tahlil qilindi masalan: Rossiya, Belorusiya davlatlari hamda vatanimizda ilmiy faoliyatini olib borayotgan ayrim olimlarning kredit munosabatlari va uning rivojlanish yo'llari hamda O'zbekistonda kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish bo'yicha bergen fikrlari atroflicha o'rganildi. Olimlarning ilmiy ishlari bilan tanishish jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, olimlar mazkur sohaga oid ko'plab ilmiy izlanishlarni amalgalashganligi hamda ushbu izlanishlar natijalari bo'lgan ularning fikr va mulohazalari bugungi kunda banklarimizning jahon kredit bozoriga integratsiyalashuvi jarayonida o'z aksini topganligi ma'lum bo'lmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatida aktivlarning qadrsizlanishi jarayonini nazorat qilish va ularning hisobini to'g'ri yuritish bankning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi hamda rentabelligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha chuqur tahlil olib borish orqali bank rahbariyati qaysi yo'nalishlarda risk darajasi yuqori yoki past ekanligini aniqlashi hamda aktivlar hisobini takomillashtirishga qaratilgan optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilishi mumkin.

Bazel qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, muammoli kredit bu – qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini bajarish muddatlarining sezilarli darajada buzilishi, qarz oluvchining moliyaviy ahvolining sezilarli darajada yomonlashuvi va garov sifatining sezilarli darajada pasayishi yoki hatto yo'qotilishi bo'lgan kreditdir.

Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini yuritish uchun asos bo'lgan me'yoriy hujjatlar

Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini yuritish uchun asos bo'lgan me'yoriy hujjatlar	Bamklarning aktivlari bo'lgan kreditlar "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha extimoliy yo'qotishlarga qarshi zahiralar tashkil qilish va ularni ishlatish tartibi to'g'risida" Nizom talablariga muvofiq tasniflanadi
	Banklarning aktivlari bo'lgan kreditlar tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatida tasniflash, ular bo'yicha extimoly yo'qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qilish va ularni ishlatish tartibi to'g'risida Nizom(2696сон, 14.07.2015) talablariga muvofiq tasniflanadi
	Foizlarni hisoblash, kreditlar bo'yicha undirilmagan foizlarni bekor qilish ham inobatga olingan holda "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi(29.09.2023, 3460сон)
	O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasи
	Boshqa me'yoriy hujjatlar

2-jadval

Toshkent viloyatidagi tijorat banklarining muammoli kreditlar to'g'risida ma'lumot (mln.so'm)

№	Bank nomi	Muammoli kreditlar		
		2022	2023	2024
1	Agrobank	58 014	16 927	161 309
2	Xalq banki	113 371	87 729	208 735
3	Mikrokreditbank	42 753	6 294	276 743
4	Qishloqqurilishbank	31 763	19 056	251 614
5	Sanoatqurilishbank	68 907	36 647	114 691
6	Milliybank	34 139	239 596	609 230
7	Hamkorbank	2 013	800	3 142
8	Asakabank	17 099	23 748	98 051
9	Ipotekabank	57 802	47 856	56 047
10	Turonbank	35 436	40 550	21 259
11	Aloqabank	51 708	10 368	37 587
12	Kapitalbank	7 052	1 998	2 839
13	Savdogarbank	3 594	10 245	271
14	Trastbank	1 353	0	3 702

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, muammoli kreditlar miqdori 2024-yilda 2022-yilga nisbatan ko'payib borgan. Muammoli kreditlarning katta qismi Milliybank hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O‘tgan 2024-yil birinchi yarim yilligida jarayonlarini jilovlash va pul massasining o‘sish sur’atlarini cheklash maqsadida 2023-yilning 28-iyunidan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 14 foizda qoldirildi. Valyuta jarayonlarini jilovlash va pul massasining o‘sish sur’atlarini cheklash maqsadida 2024-yilning 28-iyunidan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 14 foizda qoldirildi. Valyuta siyosatini liberallashtirish 2024-yilning ikkinchi yarim yilligida pul-kredit siyosatining o‘zgarishini aniqlab bergen muhim makroiqtisodiy omillardan biri bo‘ldi. Loyihalarni moliyalashtirishda investitsion kreditlardan foydalanish jarayonida hali o‘z yechimini topmagan muammolar mavjud. Investitsion loyihalarning aksariyat qismi investitsion kreditlar hisobidan moliyalashtiriladi.

2-jadval

AT Xalq banki tomonidan ajratilayotgan kreditlar turlari to‘g’risida ma’lumot

No	Kredit nomi	Kreditlash maqsadi	Kredit muddati - yil	Foiz stavkasi	Summa BXМ	Dastlabki badal to‘lovi
1	Oila farovonligi	O‘zRda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar uchun	3	16-18	500	20
2	Ijtimoiy	O‘zRda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar uchun	1	QMS*0.7	6	
3	Oila quvonchi	O‘zRda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar uchun	1	14	100	
4	Talaba krediti	O‘zR fuqarosi bo‘lgan talabalar uchun	7	14	Kelishil gan holda	
5	Ipoteka krediti	Uyni qurish, sotib olish, rekonstruksiya qilish uchun	15	18	3000	25
6	O‘zR Prezidenti PQ-308-sonli qaroriga ko‘ra mikrokreditlar	Mikrokreditlar	3	12	80	
7	Hammaga qulay	O‘zRda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar uchun	3	18-20	500	

Ma’lumki, tijorat banklarining kredit portfeli, o‘z tuzilishiga ko‘ra, xilma xildir, unda iqtisodiyotning turli sohalari qamrab olinadi. Xalq banki tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar bugungi kunda avtomobilsozlik, neft-gaz, kimyo, elekrotexnika

kabi yuqori texnologiyali va strategik muhim tarmoqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2024 yilning 1 dekabr holatiga bankning kredit portfeli 3 012,4 mlrd. so‘m bo‘lib, 2017 yilning 1 yanvariga nisbatan 128,1 foizni tashkil etadi. Respublikamiz bank tizimida Xalq bank kapitali hajmi va filiallar tarmog‘i soni bo‘yicha ikkita hamda aktivlar miqdori bo‘yicha uchta eng yirik banklar qatoriga kiradi. Banklar tomonidan bajariladigan barcha kredit operatsiyalari ularning kredit portfelida o‘z aksini topishi, har bir bank kredit portfelining sifatli bo‘lishiga erishishi zarur. Bu esa kreditlarning o‘z vaqtida qaytib kelishiga asos bo‘ladi.

Kredit portfeli to‘g’ri tashkil etilishi tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun asos hisoblanadi. Banklarning kredit portfelini kreditning risk darajasi, tarmoklar tuzilishi, kreditning maksadi, muddati, kredit hajmi, ta’minlanganlik shakli, resurs manbasi va mulkchilik shakllari buyicha tasniflash mumkin.

A.T Xalq bank kredit portfelining keyingi yillarda o‘sish dinamikasi kuzatilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat Xalqbankida kredit portfelini to‘g’ri tasniflanishi hamda samarali kredit siyosati ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. SHu o‘rinda A.T Xalq banki tomonidan berilgan kreditlarni tarmoqlar kesimida tahlil qilish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida uzoq muddatli kreditlashdagi qator muammolarni umumlashtirib, quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

- investitsion loyiha (maxsulotlar bozori) bo‘yicha marketing tadqiqotlarining chuqur olib borilmasligi va bu loyihaning kelgusidagi pul oqimlari xarakatining barqarorligiga xamda kreditni qaytarish manbasining ishonchsizligiga salbiy ta’sir etishi, shu bilan birga xom ashyni yetkazib berish va maxsulotlarni sotish bozorlarida marketing tadqiqotlarning to‘liq va xaqiqiy olib borilmasligi;
- investitsion loyihalarni kreditlash jarayonini tartibga soluvchi me’yoriy-xukukiy xujjatlar to‘la ma’noda takomillashmaganligi va ularning tez o‘zgaruvchanligi, buning natijasida kredit oluvchilarning ushbu o‘zgarishlardan bexabar qolishlari;
- investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida ko‘zlangan daromadning (loyiha bo‘yicha pul kirimlari) o‘z vaqtida kelib tushmaslik riskining mavjudligi va bunday risklarning omillari ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotni sotish, xaridorlar bilan o‘zaro xisob-kitoblar, bozor kon’yunkturasining o‘zgarishi yoki mavsumiy tebranishlar bilan bog’liq bo‘lishi;
- investitsion loyihalar tashabbuskorlari duch kelayotgan asosiy muammolardan biri - moliyalashtirishning muqobil usullaridan (lizing krediti) sust

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Sh., Fayzullayeva M., Galak O. Bankovskiy menedjmenti marketing. Uchebnoye posobiye./ - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 182 s. 2.2.
2. Abdullayeva Sh. «Bank ishi», T.: “Moliya” 2010 y.
3. Bankovskiye operatsii: ucheb. posob. dlya sredn. Prof. Obrazovaniya / pod red. Yu.I. Korobova. – M.: Magistr, 2007. – 446 s.
4. Bankovskiye operatsii: uchebnoye posobiye / kol. avtorov ; pod red. O.I. Lavrushina. - M.: KNORUS, 2007. - 384 s.
5. Bankovskoye delo: Ucheb. / Pod red. G. Beloglazavoy, L. Kroliveskoy – SPb: Piter, 2008. - 400s.
6. Lobanova T.N. “Banki: organizatsiya i personal” Prakticheskoye posobiye. M: BDS-Press, 2004
7. O.A Ortiqov, I.Ya Qulliyev "Bank menejmenti va marketingi" fanidan o‘quv qo‘llanma.T.Moliya 2013 y.
8. Larionova L.V. Upravleniye aktivami i passivami kommercheskogo banka - M.: Konsalbankir, 2003.
9. Mullajonov F.M. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. T.”O‘zbekiston” 2011.
10. Panichkina G.G. Kratkiy kurs po marketingovim issledovaniyam: ucheb. posobiye / G.G. Panichkina. – M.: Izdatelstvo «Okey - kniga», 2009. – 108 s. – (Skoraya pomosh studentu. Kratkiy kurs.)
11. Panova G.S. Analiz finansovogo sostoyaniya kommercheskogo banka – M.:Finansi i statistika, 1996.
12. Piter S. Rouz Bankovskiy menedjment. Predostavleniye finansovix uslug: per. s angl. 2-e izd., - M.: Delo Ltd, 1997.
13. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul muomalasi, kredit va moliya. O‘quv qo‘llanmasi. TDIU. 2006. 310 b.